



**Ilmiy amaliy
jurnal
№ 2 (4)
2026**

**YANGI
O'ZBEKISTON
IQTISODIYOTI**

“YANGI O‘ZBEKISTON IQTISODIYOTI” *jurnali 2-son 2026 yil*

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLY TA‘LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

**MIRZO ULUG‘BEK NOMIDAGI
O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI**

YANGI O‘ZBEKISTON IQTISODIYOTI

2

ISBN 978-9943-5256-3-4

Toshkent – 2026

MUNDARIJA

Аслонов С.М., Амиджанова М.М. Развитие бизнес-идей (стартапов) предпринимательской деятельности в Республике Таджикистан.....	7
Умаров И.Ю. Современные тенденции инновационного развития пищевой промышленности Узбекистана.....	13
Akbaraliyeva D., Mirzamahmudova M. Bank tizimi tarixi va rivojlanishi.....	16
Mamajonova N.A. Qurilish korxonalarida innovatsion boshqaruv faoliyati samaradorligini baholash ko‘rsatkichlari arxitekturasi.....	22
Ahmadkulov D.R., Xamrayev O.Y., Khattobov U.B. Kriptovalyutaga soliq solishda jahon tajirabasi va muammolar.....	25
Toshpulatov A.M. Qurilish materiallari sanoati korxonalarining ishlab chiqarish hajmini baholash usullari.....	30
Bahromov Sh.F. Jahonda to‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalarning (TXXI) iqtisodiy rivojlanish bilan bog‘liqligini tahlili.....	34
Kalmuratov B., Izzetov B., Yusupova J., Shamuratova A. Calculation in econometric models of human capital financing in innovation management in Uzbekistan.....	39
Sultonov B.M. Oilaviy korxonalar faoliyatini boshqarishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmiga ta‘sir etuvchi omillar va ularni baholash asoslari.....	43
Юсупов М.Х. Фарғона вилояти маҳаллаларида ижтимоий омилларнинг иқтисодий барқарорликка таъсири: демография, гендер ва миграция таҳлили.....	47
Жаббаров К.Й., Жалолов И.Х., Эркинов М.Д. Молиявий ҳисобот тизимининг моҳияти ва шаклланиш босқичлари.....	57
Гулямова Н.Х. Саноат корхоналарини инновацион ривожланиши ва миллий иқтисодиёт ўсиши.....	61
Arziboyeva R.S. Banklarda asosiy vositalar va mablag‘lar hisobini takomillashtirish.....	64
To‘raboyev Q.Q. Raqamli iqtisodiyot sharoitida mamlakatimizda soliq tizimini modernizatsiya qilish va sun‘iy intellekt hamda Big Data yordamida nazorat.....	67
Tojiboyev I.I. Raqamli biznes va elektron tijoratni soliqqa tortishning dolzarb masalalari va yechimlari.....	70
Xolmirzayev I.O. Kichik biznes va tadbirkorlik subyektlari faoliyatining rivojlantirishning iqtisodiy yo‘llari.....	74
Saidova M.J. Sanoat tarmoqlari transformatsiyasi sharoitida texnologik eskirish va modernizatsiya muammolari.....	79
Usmonova N.A. Andijon viloyatida kichik korxonalar faoliyat samaradorligiga ta‘sir etuvchi omillarni statistik va ekonometrik tahlil qilish.....	83
Xaydarov M.T., Jannazarova G.K. Bozor infrastrukturasi va uning rivojlanish istiqbollari.....	87
Худайназарова Д.Г. Фармацевтика корхоналарида харажатларга доир ахборотларни бухгалтерия ҳисоботларида очиб бериш тартибини такомиллаштириш.....	93
Madaminov A.M. O‘zbekistonda sanoat tarmoqlari faoliyatida oziq-ovqat sanoati rivojlantirish istiqbollari.....	99
Zufarova G.A. Kambag‘al va ishsiz fuqarolarni tadbirkorlikka jalb qilish masalalari.....	103
Ergashev I.I. Kichik korxonalar investitsiyaviy jozibadorligini samarali boshqarishda jahon amaliyoti tajribasi.....	106
Sativaldiyeva G.X. Ijara munosabatlarini mohiyati, ahamiyati va tasniflanishi.....	110
Kamilova A.N. Sanoat korxonalarida mehnat unumdorligini oshirishda mehnatni normalashtirish tizimining o‘rni va ahamiyati.....	115
Базарова Г.Г. Занятость населения в Узбекистане – теоретико-методологические основы анализа и практические механизмы решения проблем.....	119
Turabov B.T. Byudjet taqchilligi va xalqaro moliyaviy oqimlarning ta‘siri.....	125
Xamzaev A.N. Mamlakatimizda kapital bozorini rivojlantirish yo‘llari.....	131
Xamzaev A.N., Mirzajonov M. Mamlakatimizdagi xususiy korxonalarining raqobatbardoshligini oshirish yo‘llari.....	136

Raximova L.Sh. Innovatsion iqtisodiyot sharoitida ayollar tadbirkorligining roli va uning turmush farovonligiga ta'siri.....	141
Nosirov S.N. ESG tamoyillarini joriy etish orqali sug'urta kompaniyalarining moliyaviy barqarorligini oshirish mexanizmlari.....	146
Maxkamov X.M. Tijorat banklarida muammoli kreditlar ulushini kamaytirishning iqtisodiy mexanizmlarini takomillashtirish.....	150
Hamrakulova M.F. Sanoat korxonalarida innovatsion boshqaruv mexanizmlarining mahsulot sifati va bozor raqobatbardoshligiga ta'siri.....	153
Mirzayeva L.S. O'zbekiston qimmatli qog'ozlar bozoridagi aksiyalar likvidligini oshirish yo'llari.....	157
Очилов Ж.Ж. Инновацион ривожланишда кичик бизнес фаолияти экотизимининг роли..	160
Usubjonov Z.V. Qurilish materiallari bozori mohiyati va uning xususiyatlari.....	165
Bekmurodov N.X. Hududiy iqtisodiy rivojlanishning nazariy asoslari va konsepsiyalari.....	170
Yusupova M.B. Zamonaviy boshqaruv tizimi va strategik boshqaruv hisobi.....	175
Xudayberdiyev O.A. Globallashuv sharoitida elektron tijorat orqali tadbirkorlik subyektlarining xalqaro savdo munosabatlarini rivojlantirish mexanizmlari.....	179
Bo'stonova N.A. Andijon viloyatida kichik biznes subyektlarining salohiyatini tahlili.....	187
Bo'stonova N.A., Nematjonova R.D. O'zbekistonda aholining daromadlari va iste'mol xarajatlarining biznes rivojlanishiga ta'siri.....	192
Hamidova Sh.O. Sanoat korxonalarida mehnatni tashkil etish va boshqarish samaradorligi tahlili.	196
Abdullayeva Z.S. Maxsus iqtisodiy zonalar faoliyatining ijtimoiy va institutsional samaradorligi.	199
Duvshatova N.K. Hududlararo iqtisodiy nomutanosiblikni tartibga solishda investitsion yondashuvlarning samaradorligi.....	203
Усманова А.Б. Цифровая составляющая устойчивого развития региональной туристской системы (на примере Бухарской области).....	207
Qidirniyazov A.Sh. Uy-joy qurilishida kapital qo'yilmalar hajmi va yakuniy natijalar o'rtasidagi bog'liqlikni ekonometrik modellashtirish.....	213
Dexkanova Sh.K. Aylanma iqtisodiyotning barqaror rivojlanishdagi ro'li.....	217
Gulimboyev S.I., Rejapov X.X. Aholining farovonligini ta'minlashda ijtimoiy qo'llab-quvvatlashning o'rni.....	221
Mamatov B.S. O'zbekistonning investitsion imkoniyatlari: asosiy tendensiya va natijalar.....	226
Kamoldinova N.A. Ayollar tadbirkorligini rivojlantirish – ular bandligini ta'minlashning asosi.	231
Aminboyev J.O. Amortizatsiya hisobida foydali xizmat muddatini aniqlash: nazariy va amaliy yondashuvlar.....	235
Maxramova N.Y. Strategik menejmentda kadriyatlar zanjiri: raqobatbardoshlikni oshirishning konseptual asoslari.....	241
Usmanova S.S. Innovative development of the pharmaceutical industry.....	245
Faxriddinova N.N. Yashil tadbirkorlik va uning iqtisodiyotdagi o'rni.....	250
Захирова Г. Тиббий туризм хизматлари бозори ривожланишининг хориж тажрибаси.....	254
Абдуллоев А.Ж. Барқарор ривожланиш стратегияси асосида минтақавий саноатлашувни амалга оширишнинг хорижий мамлакатлар амалиёти.....	258
Sharapova N.K. Hududlarni barqaror rivojlantirish dasturlarini xalqaro standartlar tizimiga moslashtirish imkoniyatlari.....	264
Rahmatullayeva D.O. Demografik omillar va bandlik samaradorligi o'rtasidagi munosabatlar..	272

7. “Yashil makon” milliy loyihasi rasmiy ma’lumotlari (2023-2025).
8. Qishloq xo‘jaligi vazirligi va xalqaro loyihalar hisobotlari (2025).
9. NTU China Global Warming Blog. (n.d.). I = P-A-T Model. Nanyang Technological University, Singapore. <https://blogs.ntu.edu.sg/chinaglobalwarming/i-p-a-t-model/>
10. Paul R. Ehrlich, & John Holdren. (1971). Impact of population growth. *Science*, 171(3977), 1212–1217.
11. O‘zbekiston Energetika vazirligi. (2025). *Qayta tiklanadigan energiya manbalari bo‘yicha 2025-yil hisoboti*. Toshkent: Energetika vazirligi.
12. Mordor Intelligence. (2025). *Uzbekistan Renewable Energy Market Report*. Retrieved from <https://www.mordorintelligence.com>; O‘zbekiston Energetika vazirligi ma’lumotlari.
13. O‘zbekiston Ekologiya vazirligi; O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti taqdimotlari. (2024). *Maishiy chiqindilarni boshqarish bo‘yicha ma’lumotlar*.
14. O‘zbekiston Ekologiya vazirligi. (2024). *Loyihalar hisobotlari: chiqindilarni qayta ishlash dasturi*. Toshkent.
15. O‘zbekiston Chiqindilarni boshqarish agentligi. (2024). *Qog‘oz chiqindisini qayta ishlash bo‘yicha statistika*. Toshkent.
16. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi. (2024). *Yashil energetikani rivojlantirish bo‘yicha yo‘l xaritasi va materiallar*. Toshkent: Prezident Administratsiyasi.

UDK:364.01

**AHOLINING FAROVONLIGINI TA’MINLASHDA IJTIMOY QO‘LLAB-
QUVVATLASHNING O‘RNI**

**РОЛЬ СОЦИАЛЬНОЙ ПОДДЕРЖКИ В ОБЕСПЕЧЕНИИ БЛАГОСОСТОЯНИЯ
НАСЕЛЕНИЯ**

**THE ROLE OF SOCIAL SUPPORT IN ENSURING THE WELL-BEING OF THE
POPULATION**

Gulimboyev Sindor In’omjon o‘g‘li

O‘zbekiston Milliy Universiteti, Iqtisodiyot fakulteti, Moliya va moliyaviy texnologiyalar
yo‘nalishi 2-kurs talabasi

Ilmiy rahbar: O‘zMU, Moliya va kredit kafedrasini mudiri
i.f.d., professor **X.X.Rejapov**
ORSID: 0000-0001-5403-9400

Annotatsiya

Ushbu maqolada davlat tomonidan aholini ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash tizimining mazmun-mohiyati, ahamiyati va jamiyat taraqqiyotidagi roli yoritilgan. Shu bilan bir qatorda, ijtimoiy himoya siyosatining dolzarbligi, uni amalga oshirish mexanizmlari hamda asosiy yo‘nalishlari tahlil qilingan. Maqolada aholini ijtimoiy qo‘llab-quvvatlashning asosiy turlari-pensiya va nafaqalar, moddiy yordam, imtiyozlar, subsidiyalar hamda ijtimoiy xizmatlar tizimi keng ko‘rib chiqilgan.

Kalit so‘zlar. Pensiya ta’minoti, kambag‘allikni qisqartirish, ijtimoiy nafaqa, ijtimoiy himoya, imtiyoz, bandlik, subsidiya.

В этой статье освещены содержание, значение и роль государственной системы социальной поддержки населения в развитии общества. Наряду с этим проанализирована актуальность политики социальной защиты, механизмы её реализации и основные направления. В статье подробно рассмотрены основные виды социальной поддержки

населения — пенсии и пособия, материальная помощь, льготы, субсидии, а также система социальных услуг.

Ключевые слова. Обеспечение пенсий, сокращение бедности, социальное пособие, социальная защита, льгота, занятость, субсидия.

This article highlights the essence, significance, and role of the state social support system for the population in the development of society. In addition, the relevance of social protection policy, the mechanisms for its implementation, and its main directions are analyzed. The article extensively covers the main types of social support for the population — pensions and allowances, financial aid, benefits, subsidies, and the system of social services.

Keywords. Pension provision, poverty reduction, social benefits, social protection, privilege, employment, subsidy.

Respublikamiz mustaqillikka erishgach, sotsialistik tizimdan bozor iqtisodiyotiga o‘tishni boshladi. Shu bilan birga, aholining ijtimoiy himoyaga muhtoj qismini ya’ni nafaqa oluvchilar, ko‘p farzandlilar, kam ta’minlanganlar, mehnatga layoqatsizlar ham qo‘llab-quvvatlandi va bu hozirgacha davom etib kelmoqda.

Ijtimoiy himoyaga muhtoj aholi qatlamini qo‘llab-quvvatlash bir qancha ahamiyati, roli, o‘rni, dolzarbligi va muhimligi mavjud. Aholini ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash orqali daromadlar tengsizligining oldi olinadi, ijtimoiy barqarorlik ta’minlanadi, aholini xarid qobiliyati oshadi, mehnat bozorini barqarorlashtiradi, kambag‘allikni qisqartiradi, jamiyatning davlatga nisbatan ishonchini oshiradi.

Aholini ijtimoiy himoya qilishning turlari mavjud va ularning bir nechtasini ko‘rib chiqamiz:

Pensiya yoshiga yetgan aholiga pensiya to‘lash, undan tashqari, nogironligi bor shaxslar va ishsizlar uchun nafaqa to‘lashni misol qilib aytishimiz mumkin. Shu bilan bir qatorda, 14 yoshgacha bir nechta farzandi bor oilalarga bola puli to‘lab beriladi. Har bir bola uchun alohida hisoblanadi va to‘lov miqdori oiladagi farzandlar soniga qarab belgilanadi. Ushbu nafaqani tayinlash “Ijtimoiy himoya yagona reyestri” orqali amalga oshiriladi.

Aholining ba’zi bir qatlamiga soliqdan yengilliklar berilishi mumkin, ommaviy transport vositalaridan foydalanishda imtiyozlar berilishi mumkin, kommunal to‘lovlar bo‘yicha chegirmalar qilinishi mumkin va hokazolar.

Hozirgi kunda temir daftar, yoshlar daftari, ayollar daftarida turuvchi shaxslar, o‘zlarining tadbirkorlik faoliyatini boshlamoqchi bo‘lsa, davlat tomonidan bir martalik subsidiyalar ajratilmoqda. Undan tashqari ishsiz bo‘lgan shaxslarning katta qismi davlat tomonidan ish bilan ta’minlanmoqda. Xususan, bu borada mamlakatimizda “Kambag‘allikni qisqartirish va bandlik vazirligi” faoliyat olib bormoqda. Shu bilan bir birgalikda, mehnat birjalari ham faoliyat yuritmoqda. Ta’kidlash joizki, hozirgi vaqtda zamonaviy kasblarni bilish dolzarb masala bo‘lmoqda. Ushbu muammoga yechim topish maqsadida, hukumatimiz yoshlarni va ishsizlar katta qismini zamonaviy kasblarga o‘qitish bo‘yicha subsidiyalar ajratmoqda.

Ota-onasidan yetim qolgan bolalar uchun “Mehribonlik” uylari, boquvchisini yo‘qotgan yoki himoyaga muhtoj keksalar uchun “Muruvvat” uylari davlatimiz tomonidan tashkil qilingan.

Ijtimoiy himoyaga muhtoj aholiga ipoteka subsidiyalari, shu bilan birgalikda arzon uy-joy dasturlari ishlab chiqilmoqda.

Kambag‘allikni qisqartirish va aholini ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash borasida Prezidentimiz Sh.Mirziyoyev tomonidan bir qatorlar qarorlar va farmonlar ijro qilingan. Jumladan, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 7-fevral 2017 yildagi PF-4947-sonli farmonida, 5 ta ustuvor yo‘nalishdan iborat bo‘lgan, 2017-2021-yillar uchun tuzilgan “Harakatlar strategiya”sining 4-yo‘nalishi “Ijtimoiy sohani rivojlantirish” bo‘lib, bu quyidagilarni o‘z ichiga oladi: “Ijtimoiy sohani rivojlantirishga yo‘naltirilgan aholi bandligi va real daromadlarini izchil oshirib borish, ijtimoiy himoya va sog‘liqni saqlash tizimini takomillashtirish, xotin-qizlarning ijtimoiy-siyosiy faolligini oshirish, arzon uy-joylar barpo etish, yo‘l-transport, muhandislik-kommunikatsiya va ijtimoiy infratuzilmalarni rivojlantirish hamda modernizatsiya qilish bo‘yicha maqsadli dasturlarni amalga

oshirish, ta’lim, madaniyat, ilm-fan, adabiyot, san’at va sport sohalarini rivojlantirish, yoshlarga oid davlat siyosatini takomillashtirish” [1].

Shu bilan birgalikda, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 28-yanvar 2022-yildagi PF-60-sonli farmonida, 7 ta ustuvor yo‘nalishdan tashkil topgan, 2022-2026-yillar uchun tuzilgan “Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi”ning 1-yo‘nalishi “Inson qadrini yuksaltirish va erkin fuqarolik jamiyatini yanada rivojlantirish orqali xalqparvar davlat barpo etish” bo‘lib, bunda quyidagi vazifalarni amalga oshirish ta’kidlangan: “2026-yilga qadar ehtiyojmand aholi ijtimoiy nafaqa va moddiy yordam bilan to‘liq qamrab olish, ijtimoiy himoya sohasida yagona davlat siyosatini amalga oshirish, ijtimoiy sug‘urta tizimini yaratish, jumladan ijtimoiy sug‘urta jamg‘armasini tashkil etish, kam ta’minlangan oilalarga ijtimoiy yordam va xizmatlarni ijtimoiy shartnoma asosida taqdim etish, “Ijtimoiy himoya yagona reyestri” axborot tizimida yordamga muhtoj ayollar, yoshlar va nogironligi bo‘lgan shaxslar bo‘yicha alohida ma’lumotlar bazasini yaratish, jumladan “Temir daftar”, “Yoshlar daftari” va “Ayollar daftari”ni “Ijtimoiy himoya yagona reyestri” bilan integratsiya qilish va boshqalar” [2].

Aholini ijtimoiy himoya qilish, kambag‘allikni qisqartirish va bandlikni ta’minlash borasida shu paytgacha keng ko‘lamli izlanishlar olib borilgan. Jumladan, iqtisodchi Q.X. Abdurahmonovning “Mehnat iqtisodiyoti va sotsiologiyasi” darsligida “Bandlikni ta’minlash, mehnat bozorini rivojlantirish, kambag‘allikni qisqartirish” [3] kabi asosiy muammolarga urg‘u berilgan. Shu bilan bir qatorda A.Vahobov va T.Malikovlarning “Moliya” darsligida “Ijtimoiy xarajatlarning samaradorligi, aholini ijtimoiy qo‘llab-quvvatlashning moliyaviy mexanizmlari” [4] yoritib berilgan. Undan tashqari, Tadqiqotchi M.Temirovning fikricha, “Aholi turmush darajasini yaxshilashdagi asosiy dastak bu-davlatning moliyaviy siyosatni to‘g‘ri boshqarishi” [5] deb ta’kidlagan.

Iqtisodchi olim G.Qosimovning fikricha “Ijtimoiy siyosat-bu aholining turmush farovonligini oshirish, uning yashashi, ish faoliyati olib borishi uchun yetarli sharoitlarni ta’minlaydigan asosiy davlat siyosati bo‘g‘inidir” [6].

Davlat tomonidan aholini ijtimoiy qo‘llab quvvatlash-bu aholining ehtiyojmand, kam ta’minlangan, mehnatga layoqatsiz yoki ijtimoiy himoyaga muhtoj qatlamlarini moddiy, moliyaviy, huquqiy va ijtimoiy jihatdan himoya qilishga qaratilgan davlat siyosati va chora-tadbirlari tizimidir. Ushbu tizimning mohiyati, roli, dolzarbligi to‘g‘risida yuqorida tahlil qilindi. Endi ushbu tizim bo‘yicha quyidagi statistikani ko‘rib chiqamiz:

1-jadval

Pensiya oluvchilarning hududlar bo‘yicha taqsimlanishi [7]

Hududlar nomi	Pensiya oluvchilari soni, ming kishida
O‘zbekiston Respublikasi	4246.4
Qoraqalpog‘iston Respublikasi	226.1
Viloyatlar:	
Andijon	392.8
Buxoro	269.9
Jizzax	143.6
Qashqadaryo	378.9
Navoiy	145.1
Namangan	328.8
Samarqand	449.9
Surxondaryo	283.8
Sirdaryo	108.9
Toshkent	395.0
Farg‘ona	496.9
Xorazm	231.1
Toshkent shahri	395.6

1-jadvaldan ko‘rinadiki, 2024-yil oxiri holatiga O‘zbekistonda jami 4 246,4 ming nafar pensiya oluvchi ro‘yxatga olingan. Bu aholining katta qismini tashkil etuvchi ijtimoiy himoyaga muhtoj qatlam-keksalar, nogironligi bo‘lgan shaxslar hamda boquvchisini yo‘qotgan fuqarolar mavjudligini ko‘rsatadi. Mazkur ko‘rsatkich davlat zimmasiga tushayotgan ijtimoiy majburiyatlar hajmi yuqoriligidan dalolat beradi.

Hududlar kesimida eng yuqori ulushga ega bo‘lgan viloyatlar-Farg‘ona, Andijon, Samarqand, Toshkentdir. Bu hududlarda pensiya oluvchilar sonining yuqoriligiga sabab: Aholi sonining ko‘pligi, demografik zichlik yuqoriligi va keksalarning ulushi ko‘pligidan deb ta’kidlashimiz mumkin.

Eng past ulushga ega bo‘lgan viloyatlar-Sirdaryo, Jizzax va Navoiydir. Ushbu hududlarda, aholi soni kam, urbanizatsiya darajasi past va migratsiya jarayoni yuqori bo‘lishi mumkin.

Hududlar o‘rtasidagi tafovutning kelib chiqishiga sabab-pensiya yuklamasining notekis taqsimlanganligi, mahalliy byudjetlarga tushadigan bosim turlicha ekanligini va ijtimoiy xizmatlarga ehtiyoj darajasi farqlanishini ko‘rsatadi.

Pensiya oluvchilarni hududlar kesimida o‘rganishning ahamiyati. Davlat byudjetini rejalashtirishda muhim rol o‘ynaydi, qaysi hududda ehtiyoj yuqori ekanligi aniqlanib, o‘sha hududga ko‘proq mablag‘ ajratiladi.



1-rasm. Pensiya oluvchilarining soni va ularning o‘shishi [8]

Yuqoridagi grafik ma’lumotlariga ko‘ra, 2020–2024-yillar davomida O‘zbekistonda pensiya oluvchilar soni izchil o‘shish tendensiyasiga ega bo‘lgan. 5 yil ichida pensiya oluvchilarning o‘shish dinamikasini tahlil qiladigan bo‘lsak, umumiy pensiya oluvchilar soni +633,8ga oshgan. Bu esa qariyb, 17-18% o‘shish deganidir. Pensiya oluvchilarning soni oshishi, ijtimoiy himoya tizimiga ta’sir jarayonini o‘rganib chiqamiz:

Byudjetdan tashqari pensiya fondi mamlakatimizda odatda defitsitda chiqadi. Defitsitni esa davlat moliyalashtiradi. Buning natijasida, davlat xarajatlari ortadi.

Demografik qarish jarayoni tezlashmoqda. Bu esa uzoq muddatli ijtimoiy siyosatni qayta ko‘rib chiqishni taqozo etadi.

Keyingi asosiy tahlil qilinishi kerak bo‘lgan narsa bu-kambag‘allik darajasidir.

2-jadval

Kambag‘allik darajasining yillar kesimida o‘zgarishi [9]

Yillar	Kambag‘allik darajasi, %
2021	17.0
2022	14.1
2023	11.0
2024	8.9
2025	5.8

2-jadvaldagi ma’lumotlarga ko‘ra, mamlakatimizda kambag‘allik darajasi yildan yilga pasaygan. 2025 yilda 2021 yilga nisbatan 11,2 punktga kamaygan. Bu ma’lumotlar mamlakatda

kambag‘allikni kamaytirish bo‘yicha izchil va samarali siyosat olib borilayotganini ko‘rsatadi. Agar bu tendensiya davom etsa, yaqin yillarda kambag‘allik darajasi yanada past ko‘rsatkichlarga tushishi mumkin.

3-jadval

Davlat tomonidan ijtimoiy soha va ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash xarajatlari [10]

Yillar	Ijtimoiy soha va aholini ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash xarajatlari, mlrd so‘m
2024	134666.6
2023	122348.7
2022	105589.1
2021	80671.8
2020	63176.7

2020–2024 yillar davomida O‘zbekistonda ijtimoiy soha va ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash uchun ajratilgan mablag‘lar sezilarli darajada oshgan. 2020-yilda bu ko‘rsatkich 63176.7 mlrd so‘mni tashkil etgan bo‘lsa, 2021-yilda 80671.8 mlrd so‘mga yetib, 21 foizga o‘shirib kuzatilgan. 2022-yilda mablag‘lar 105589.1 mlrd so‘mga ko‘tarilib, 2020-yilga nisbatan 40 foizlik keskin o‘shirib qayd etilgan. 2023-yilda esa bu ko‘rsatkich 122348.7 mlrd so‘mni tashkil etib, yana 49 foizga oshgan. 2024-yilda mablag‘lar 134666.6 mlrd so‘mga yetgan bo‘lib, o‘shirib sur‘ati 53 foizni tashkil etgan (3-jadval). Umumiy hisobda, besh yil ichida ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash uchun ajratilgan mablag‘lar 2,1 baravar ko‘paygan. Bu davlatning ijtimoiy siyosatida aholining kam ta‘minlangan qatlamlarini qo‘llab-quvvatlashga katta e‘tibor qaratilganini ko‘rsatadi.

Umuman olganda, ijtimoiy himoya tizimi aholining turli qatlamlarini — keksalar, nogironligi bo‘lgan shaxslar, kam ta‘minlangan oilalar, bolali oilalar hamda vaqtincha mehnatga layoqatsiz fuqarolarni qo‘llab-quvvatlashga qaratilgan muhim davlat mexanizmi hisoblanadi. Statistik ma‘lumotlar tahlili shuni ko‘rsatadiki, yillar davomida ijtimoiy nafaqa va yordam oluvchilar sonining ortib borishi davlat tomonidan aholini qamrab olish darajasi kengayayotganini anglatadi.

Ijtimoiy himoya tizimining ahamiyati, avvalo, aholining minimal turmush darajasini ta‘minlash, kambag‘allikni qisqartirish hamda ijtimoiy tengsizlikni yumshatishda namoyon bo‘ladi. Shuningdek, bu tizim aholining eng zaif qatlamlarini iqtisodiy xavflardan himoya qilib, jamiyatda ijtimoiy barqarorlikni mustahkamlaydi. Davlat byudjeti xarajatlarida ijtimoiy sohaga ajratilayotgan mablag‘larning salmoqli ulushga ega ekani ham ushbu yo‘nalish ustuvor ekanini tasdiqlaydi.

Kelgusida ijtimoiy himoya samaradorligini oshirish uchun yordamlarning manzilliligini kuchaytirish, raqamli platformalar orqali hisob-kitob va nazoratni takomillashtirish, shuningdek, aholi bandligini oshirish bilan bog‘liq kompleks choralarni amalga oshirish muhim hisoblanadi. Shu tariqa, ijtimoiy himoya tizimi nafaqat yordam berish vositasi, balki jamiyatning barqaror ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishini ta‘minlovchi strategik omil sifatida xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 7-fevral 2017 yildagi “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-4947-sonli Farmoni. lex.uz - O‘zbekiston qonunchiligi
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 28-yanvar 2022-yildagi “Yangi O‘zbekiston Taraqqiyot strategiya to‘g‘risida”gi PF-60-sonli farmoni. lex.uz - O‘zbekiston qonunchiligi
3. Q.X.Abdurahmonov. “Mehnat iqtisodiyoti va sotsiologiyasi”. Darslik. Toshkent. 2005-yil.
4. A.Vahobov, T.Malikov “Moliya”. Darslik. Toshkent-2012
5. M.Temirov (2023). “Aholi turmush darajasini yaxshilashda moliyaviy siyosatning o‘rni”. <https://www.researchgate.net/>
6. G.Qosimova. “Ijtimoiy-madaniy sohalarni rivojlantirishda budget siyosati”. Toshkent. “Moliya va iqtisod” 2004.
7. M.Xasanova(2023). Aholi farovonligini ta‘minlashda davlat ijtimoiy-moliyaviy siyosatining ahamiyati va o‘ziga xos xususiyatlari.